



2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 26 (1625), 2026-yil 7-fevral, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON VA POKISTON O‘RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI CHUQURLASHTIRISHGA YANGI SUR‘AT BAG‘ISHLAYDIGAN TARIXIY TASHRIF

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan 5-6-fevral kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-fevral kuni Islomobod shahriga davlat tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan birgalikda qo‘shma biznes forumida ishtirok etdi.

Tadbirida ikki mamlakatning 300 dan ortiq yetakchi sanoat korxonalari va savdo kompaniyalari, tarmoq tashkilotlari hamda ishbilarmonlik tuzilmalari rahbarlari va vakillari qatnashdi.

Pokiston tomonidan “PEL”, “Waves Singer”, “Sadaqat”, “Fauji”, “Platinum”, “Fast Cables”, “National Fruit”, “Amson Group”, “Shaigan”, “Hans International”, “Secure Logistics Group”, “NLC”, “Fairmont”, “Go Dairy”, “Engro”, “Herbion”, “ACP”, “Arco”, “Habib Rafiq”, “Pakistan Steel Mills”, “Siddiq Sons”, “Uniworth”, “Diners”, “Fatima Group”, “Fateh Group”, “Hub Leather”, “Siddiq Leather”, “Royal Leather”, “Davis”, “Ahsan Dyeing” va boshqa ko‘plab kompaniyalar shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida oliy darajadagi muzokaralar O‘zbekiston — Pokiston munosabatlarini, eng avvalo,

savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy jihatdan rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi. O‘zaro aloqalar tarixida ilk bor iqtisodiy hamkorlikka yangi sifat bag‘ishlash va savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazishni nazarda tutuvchi bayonnomma imzolandi.

Ikki mamlakat mutasaddilarga kompleks “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va yuzaga keladigan masalalarni tezkor hal etish mexanizmini joriy qilish topshirildi.

O‘zbekiston Prezidenti iqtisodiy sheriklikning muhim yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi. Farmatsevtika va tibbiyot, yengil sanoat, kon-metallurgiya tarmog‘i va geologiya, oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish shular jumlasidan.

Pokiston kompaniyalari O‘zbekistondagi dori vositalari, biotexnologiyalar va tibbiy asbob-uskunalarini mahalliyashtirish loyihalariga taklif etildi. Toshkent farmatsevtika parkida pokistonlik investorlar uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Xalqaro brendlar uchun tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini birgalikda

ishlab chiqarishda katta salohiyat mavjudligi ta’kidlandi. O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarini ishonchli boshqaruvga berish va pokistonlik hamkorlar uchun alohida charm sanoati zonalarini tashkil etishga tayyor.

Go’sht, kartoshka va guruchni birgalikda yetishtirish, shuningdek, urug‘chilik va seleksiya sohasida Pokiston Milliy genomika instituti bilan sheriklik istiqbollariga alohida e’tibor qaratiladi.

Transport-logistika sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish savdo hajmini yanada oshirishning muhim shartidir.

“Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” yo‘nalishi bo‘ylab yuk tashish, Lahor va Islomobod shaharlariga esa aviataqimovlar yo‘lga qo‘yildi, Trans-afg‘on temir yo‘lini qurish loyihasi ilgari asbob-uskunalarini mahalliyashtirish loyihalariga taklif etildi. Toshkent farmatsevtika parkida pokistonlik investorlar uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Hududlar o‘rtasidagi aloqalarni amaliy jihatdan mustahkamlash maqsadida joriy

yilda birinchi Hududlararo forumni o‘tkazish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Tadbir yakunida O‘zbekiston yetakchisi va Pokiston Bosh vaziri erishilgan kelishuvlar to‘g‘risida alohida Bayonnomani imzoladilar. Unda amalga oshirish muddatlari hamda ikki mamlakatning buning uchun mas’ul vazirlik va idoralari rahbarlari belgilab olindi.

Shuningdek, yetakchilar huzurida qator investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy kelishuvlarni almashish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islomobodda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Pokiston biznes forumi doirasida “Go Group” kompaniyasi bosh ijrochi direktori Dur Muhammad Ayub bilan uchrashdi.

Korxona Pokistonning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport sohaslarida yetakchidir.

Kompaniyaning mamlakatimiz hududlarida chorvachilik mahsulotlarini to‘liq qayta ishlash zanjiriga ega agroklaster barpo etish bo‘yicha rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islomobod shahriga davlat tashrifi doirasida “Gohar Textile” kompaniyasi asoschisi Gouhar Mustaf o bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Kompaniya paxta tolasini qayta ishlashga ixtisoslashgan bo‘lib, maishiy to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha katta tajribaga ega.

Uchrashuv davomida mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlarini birgalikda ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston korxonalarini xalqaro yetkazib berish zanjirlariga integratsiya qilish istiqbollari muhokama qilindi.

O‘zbekiston — Pokiston biznes forumi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “HRL Group” kompaniyasi raisi Zohid Rafiq bilan uchrashdi.

Kompaniyalar guruhi qurilish, tog‘-kon sanoati va energetika sohaslarida faoliyat yurituvchi eng yirik korxonalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston tajribasini qo‘llagan holda Pokistondagi mis, oltin va o‘ta muhim mineralar konlarida birgalikda geologiya-qidiruv ishlarini olib borish istiqbollari muhokama qilindi.

Mamlakatimiz yetakchisi kompaniya rahbarining Pokiston poytaxtida Imom

Buxoriy majmuasi va Samarqandda mehmonxona qurish tashabbuslarini olqishladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokistonga davlat tashrifi doirasidagi ishbilarmonlik tadbirlari davomida “Engro Group” kompaniyasi raisi Ahsan Zafar Sayid bilan ham uchrashuv o‘tkazdi.

Kompaniya Pokistonning energetika xavfsizligiga katta hissa qo‘shib, energetika, neft-kimyo va qishloq xo‘jaligi sohaslarida katta tajribaga ega.

Suhbatda Prezidentimiz kompaniyaning kimyo sanoatidagi loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatladi. Shuningdek, chorvachilikni rivojlantirish va chorva mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha sheriklik uchun katta salohiyat mavjudligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islomobod shahriga davlat tashrifi doirasida “Ayyoni Sadr” qarorgohida Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Asif Ali Zardoriy bilan tor doirada va delegatsiyalar ishtirokida uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish, do‘stlik hamda strategik sheriklikni mustahkamlashning joriy holati va dolzarb yo‘nalishlari muhokama qilindi.

Uchrashuv avvalida Asif Ali Zardoriy davlatimiz rahbarini Strategik hamkorlik kengashiningbirinchiyig‘ilishimuvaffaqiyatli bo‘lgani munosabati bilan tabrikkladi hamda ushbu davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishga yangi sur‘at bag‘ishlaydigan tarixiy ahamiyatga ega ekanini qayd etdi.

Yangi O‘zbekistonni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuqori baholandi.

Turli darajalardagi faol aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va qo‘shma korxonalar soni barqaror o‘sib bormoqda. Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Islomoboddagi sammitga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi va siyosiy maslahatlashuvlar samarali o‘tkazildi.

Amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiya aloqalarini rivojlantirish hamda ishbilarmonlik

almashinuvlarini faollashtirish muhimligi ta’kidlandi.

Yaqin istiqbolda o‘zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish va amalga oshirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Hududlararo forumning birinchi yig‘ilishini shu yil Xivada o‘tkazishga kelishib olindi.

Xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi. Tomonlar dolzarb mintaqaviy va xalqaro kun tartibi bo‘yicha pozitsiyasi o‘xshashligi hamda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishlarini yana bir bor tasdiqladilar.

Madaniy va gumanitar almashinuvlarni yanada kengaytirish hamda ta’lim, ekologiya, sport va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalarini ilgari surishga o‘zaro intilish qat’iy ekani qayd etildi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev Asif Ali Zardoriyni O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Shundan so‘ng “Ayyoni Sadr” qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga “Nishoni Pokiston” ordenini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Prezident Asif Ali Zardoriy Pokistonning oliy mukofotini davlatimiz rahbariga tantanali ravishda topshirdi.

Ushbu nufuzli mukofot ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy sa’y-harakatlarning munosib e’tirofi hamda O‘zbekiston xalqiga do‘stona munosabat va chuqur hurmat ifodasi ekani qayd etildi.

O‘zbekiston — Pokiston strategik sherikligi mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib borishiga ishonch bildirildi.

Ta’kidlash joizki, mazkur yuksak mukofot turli yillarda Buyuk Britaniya Qirolligasi Yelizaveta II, AQSH Prezidenti Richard Nixson, Janubiy Afrika Respublikasi Prezidenti Nelson Mandela, Tailand Qirolli Pxumipon Adulyadet, BAA Prezidenti Shayx Zoid bin Sulton Ol Nahayon, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintao, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an, Saudiya Arabistoni Vahid shahzodasi Muhammad bin Salmon va boshqalarga berilgan.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

ISLOHOTLAR NAFASI HAR BIR MAHALLADA, HAR BIR XONADONDA SEZILISHI KERAK

Mamlakatimizda inson qadrini ulug‘laydigan salmoqli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Davlatimiz rahbarining o‘tgan yili 19-20-iyun kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi asnosida yurtimizdagi o‘zgarishlar, islohotlar odamlar hayotiga kirib borayotgani alohida qayd etildi. Jumladan, Shahrisabz, Yakkabog‘ va Ko‘kdalada ishga tushirilgan yangi loyihalar boshqa hududlar uchun andoza ekani ta’kidlandi.

Albatta, bu e’tirof voha ahli uchun katta sharaf, iftixor. Bu barchamizga o‘zgacha ishitiyoq va ruh berdi, viloyat ahlini yangi yutuqlar sari ilhomlantirdi. O‘tgan yil sarhisobi va yangi rejaralar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham buni tasdiqlaydi.

Xorijiy investitsiya va eksport hajmi oshmoqda

Chetdan kirib keladigan sarmoya qaqroq yerga hayot bag‘ishlaydigan daryoga o‘xshaydi. Shu ma’noda, iqtisodiyotimizga olib kirilayotgan sarmoyalar tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari ochish, yurtdoshlarimiz daromadini oshirish, ko‘chalarimiz, mahallalarimiz qiyofasini o‘zgartirishga sabab bo‘lmoqda.

O‘tgan yili viloyatimiz iqtisodiyotida (tarmoq korxonalaridan tashqari) 1,2 milliard dollarlik to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. 2024-yilga nisbatan 471 million dollar ko‘p investitsiya kirib keldi va 1,7 barobar o‘shish kuzatildi.

Viloyatimizga 200 dan ortiq xorijiy hamkorning xizmat safari uyushtirildi. Elchixonalar va diplomatik korpus vakillari bilan yaqin hamkorlikda o‘ndan ortiq yirik xalqaro biznes-forum hamda xorijiy kompaniyalar ishtirokida 80 dan ziyod uchrashuv o‘tkazilgani, Malayziya va Fransiyada viloyatning “Savdo uylari” ochilgani ham yutuqlarimizning aytishga arzigulik sahifalaridir.

▶ Davomi 3-betda



Taraqqiyot odimlari



O‘ZBEKISTON – POKISTON: BOBURIYLAR MEROSIDAN XXI ASRDAGI STRATEGIK SHERIKLIKKACHA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING POKISTON ISLOM RESPUBLIKASIGA DAVLAT TASHRIFI YAKUNLARI BO‘YICHA MULOHAZALAR

Shu kunlarda axborot makonidagi asosiy mavzulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi bo‘ldi. Ushbu tashrif tarixi, hech ikkilanmay, tarixiy voqea deb atash mumkin. Chunki tashrif tarixi va madaniyati chuqur mustarak bo‘lgan ikki xalq o‘rtasidagi munosabatlarda yangi va muhim sahifani ochmoqda.

Tarix va geosiyosat chorrahasida

Pokiston o‘ziga xos taqdir va ulkan salohiyatga ega davlat. Bu mamlakat tarixi, shubhasiz, dunyo sivilizatsiyalarining chorrahasini eslatadi. Asrlar davomida bu hudud orqali karvon yo‘llari, qo‘shinlar, dinlar va madaniyatlar uchrashgan.

1947-yili tashkil topgan Pokiston bugun nafaqat Janubiy Osiyo, balki butun musulmon olamida muhim o‘rin tutadi. Indoneziyadan keyin musulmon aholisi soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinda turadi. Odam soni bo‘yicha beshinchi o‘rinni egallagan (aholisi 240 milliondan ortiq).

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmi 400 milliard AQSH dollaridan ziyod. Shu bilan u dunyodagi 40 ta yirik iqtisodiyot qatoriga kiradi hamda raqamlashtirish, “yashil” energetika va infratuzilma sohaslarida katta rejalarni amalga oshirmoqda.

Eng muhimi, Pokiston Janubiy va Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq hamda Xitoy o‘rtasida joylashgan. Muhim quruqlik va dengiz kommunikatsiyalarini nazorat qiladigan, mintaqalarni bog‘lovchi tabiiy ko‘priklar vazifasini bajaradi.

Hozirgi murakkab geosiyosiy muhitda Pokistonning mustaqil va salmoqli ta’siriga ega davlat sifatidagi mavqei tobora ortib bormoqda. U 2025-2026-yillar uchun BMT Xavfsizlik kengashining doimiy bo‘lmagan a’zosi. Shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, SHHT va boshqa yirik xalqaro tuzilmalarda faol ishtirok etmoqda.

Bugun Pokiston shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyo arxitekturasining muhim tayanch markazlaridan biri sifatida ko‘rilmokda.

▶ Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON – POKISTON: BOBURIYLAR MEROSIDAN XXI ASRDAGI STRATEGIK SHERIKLIKKACHA



Sherzodxon QUDRATXO‘JA,
siyosiy fanlar doktori,
professor,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

► Boshlanishi 1-betda

Tarix zanjiri: Boburdan zamonaviy davrgacha

O‘zbekiston va Pokiston haqida so‘z yuritir ekanmiz, xalqlarimizni bog‘lab turgan ulug‘ shaxsni eslamaslik mumkin emas. Bu buyuk ajdodimiz, mutafakkir va boburiylar saltanati asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburdir. U XIX asr o‘rtalarigacha hind subqit‘asini boshqargan qudratli sulolaga asos soldi. Nabirasi Akbar Lahorni saltanat poytaxtlaridan biriga aylantirdi. Boburiylar davriga oid Lahor qal‘asi (Shohiqal‘a), Shalimor bog‘lari, Badshohiy masjidi kabi me‘moriy durdonalar UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan va Pokistonning asosiy ramzlaridandir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING POKISTON ISLOM RESPUBLIKASIGA DAVLAT TASHRIFI YAKUNLARI BO‘YICHA MULOHAZALAR



“Boburnoma”ni qayta-qayta mutolaa qilar ekanman, Boburning hozirgi Pokiston hududiga tegishli o‘kalar haqidagi fikrlariga doim e‘tibor qaratardim. U bu zamin unumdorligi, suv manbalari mo‘lligi, bog‘-rog‘lar va ekinzorlar seroblighi to‘g‘risida so‘z yuritgan. Shuningdek, Panjob viloyatining g‘oyat obod va gavjumligi, qishloq va shaharlarning deyarli uzluksiz bir-biriga tutashib ketgani haqida ham alohida qayd etgan.

Bu fikrlar XVI asrdayoq hozirgi Pokiston hududi kuch, boylik va strategik ahamiyat markazi sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi hamda nega aynan shu yerda boburiylar saltanati barpo etilganini tushuna boshlaymiz.

Bugun Bobur va sulolasi qoldirgan ma‘naviy-ma‘rifiy meros millionlab pokistonliklar qalbidayashab kelmoqda va bu ikki xalq uchun umumiy tarixiy xotira. Ana shu umumiy meros zamonaviy O‘zbekiston — Pokiston sherikligining mustahkam poydevoridir.

Yangi davr boshlanganini belgilovchi tashrif

Prezidentimizning 5-fevralda boshlangan davlat tashrifi dastlabki daqiqalardan boshlab yuksak hurmat va strategik ahamiyat muhitida o‘tdi. Bu qat‘iy diplomatik protokol doirasidan

hajmi 12 barobar o‘sdii, O‘zbekistonda Pokiston sarmoyasi ishtirokidagi 230 ta korxona faoliyat yuritmoqda, aviaqatnovlar kengaymoqda, bank va tadbirkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

Tovar ayirboshlash hajmini hozirgi 500 million AQSH dollaridan 2 milliard dollargacha yetkazish bo‘yicha ulkan va real maqsad qo‘yildi. Bu aniq yechimlar bilan mustahkamlandi: tovarlar ro‘yxatini kengaytirish, imtiyozli savdo, yangi fitosanitariya ruxsatnomalari. Qiymati taxminan 3,5 milliard dollarlik qo‘shma loyihalar portfeli qishloq xo‘jaligi va farmatsevtikadan tortib, geologiya va yengil sanoatgacha bo‘lgan muhim tarmoqlarni qamrab olgan.

Transport yo‘laklarini rivojlantirish alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Muzokaralar chog‘ida transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini jadallashtirish, shuningdek, “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” transport yo‘lagini rivojlantirish muhimligi ta‘kidlandi. Bularning barchasi mamlakatlarimizni Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi bo‘g‘inga aylantirmoqda. Butun mintqa va undan tashqarida yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi mintaqalararo aloqalar ham muhim ahamiyatga ega. Buning ifodasi sifatida mahalliy hamkorlik uchun poydevor yaratuvchi hududlar forumi tashkil etildi.

Imtiyozli savdo, qishloq xo‘jaligi va raqamli texnologiyalardan tortib, yadro xavfsizligi, korrupsiya va giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi kurashish sohasidagi hamkorlikkacha bo‘lgan ko‘plab sohalarni qamrab oluvchi qo‘shma deklaratsiya hamda 30 ga yaqin muhim hujjat imzolandi.

Tashrif chog‘ida Islomobod shahridagi ko‘chalardan biriga Toshkent, yangi barpo etilayotgan boqqa Zahiriddin Muhammad Bobur nomining berilishiga bag‘ishlangan marosim o‘tkazildi. O‘zbekiston Prezidentiga Pokistonning oliy davlat mukofoti bo‘lmish “Nishoni Pokiston”

ordeni, shuningdek, Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universitetining faxriy doktori hamda professori unvonlari topshirildi.

Ishbilarmonlik dasturining cho‘qqisi “PEL”, “Engro”, “Fauji”, “Pakistan Steel Mills” kabi 300 dan ortiq yetakchi kompaniya ishtirokidagi qo‘shma biznes-forum, shuningdek, davlatimiz rahbarining Pokiston korporativ tuzilmasi yetakchilari bilan alohida uchrashuvi bo‘ldi. O‘zbekiston Prezidenti hamkorlik uchun aniq sohalarni taklif etdi: farmatsevtika va tibbiyot, yengil sanoat, ko-metallurgiya sohasi va geologiya, oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish shular jumlasidan.

Pokiston kompaniyalari O‘zbekistonda dori-darmon, biotexnologiyalar va tibbiyot jihozlarini mahalliylashtirish loyihalariga taklif etildi. Toshkent farmatsevtika parkida pokistonlik sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratiladi. Xalqaro brendlar ostida tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini birgalikda ishlab chiqarish uchun katta imkoniyat mavjudligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston tomoni to‘qimachilik korxonalarini ishonchli boshqaruvga berish va pokistonlik hamkorlar uchun alohida charm sanoati hududlarini tashkil etishga tayyor ekanini bildirdi. Logistika bo‘yicha aniq qadamlar belgilandi: joriy yil apreldan boshlab Karachiga yur reyslari hamda Lahorga to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘lovchi parvozlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmogda.

Pokiston biz uchun nimaga muhim?

Keling, endi bu mamlakat bilan hamkorlikni mustahkamlash nima uchun bu qadar muhimligini tahlil qilib ko‘raylik. Tashrif natijalari ikki tomonlama munosabatlarga doirasidan ancha keng.

Birinchidan, logistika loyihalarini amalga oshirishda O‘zbekiston Pokiston portlari orqali xalqaro dengizlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish

imkoniyatiga ega bo‘ladi. Transafg‘on temir yo‘li va “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” koridori biz uchun strategik ahamiyatga ega. Ushbu loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, butun Yevrosiyoening geoiktisodiy xaritasini o‘zgartira oladi.

Ikkinchidan, mintaqaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan yadro quroliga ega va armiya soni bo‘yicha dunyoda oltinchi o‘rinda turuvchi Pokiston bilan yaqinlashish bugungi beqaror dunyoda O‘zbekistonning mavqei-ni mustahkamlashga muhim hissa qo‘shadi. Mudofaa sohasidagi hamda terrorizm, giyohvandlik moddalari savdosi va kibertahdidlarga qarshi kurashish bo‘yicha kelishuvlar zamonaviy muammolarga javob beradi. Qolaversa, terrorizmga qarshi kurash xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Islomoboddagi masjidlardan birida sodir etilgan va 30 dan ortiq begunoh insonning hayotiga zomin bo‘lgan terrorchilik harakati buning yaqqol tasdiq‘idir.

Dunyo beqarorlik, parchalanish va avvalgi ittifoqlarni qayta ko‘rib chiqish davrini boshdan kechirayotgan bugungi kunda Pokistonning mas‘uliyatli mintaqaviy kuch sifatidagi mavqei alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu mamlakat Janubiy Osiyo, Afg‘oniston, Hind okeani va Islom dunyosidagi jarayonlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa Islomobodni global muvozanatning muhim aktoriga aylantiradi.

Prezidentimizning Pokistonga davlat tashrifi strategik g‘alaba bo‘ldi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda markazga intiluvchi kuch sifatida o‘zini ishonch bilan namoyon etishni davom ettirmoqda va qudratli mintaqaviy davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlamoqda.

Mamlakatlar rahbarlarining xohish-irodasi va yaqin do‘stona munosabatlari, umumiy tarixi hamda o‘zaro iqtisodiy manfaatlari bilan mustahkamlangan O‘zbekiston — Pokiston aloqalari yangi, strategik mazmun kasb etmoqda. Bu butun mintaqamiz tinchligi, barqarorligi va farovonligi uchun xizmat qiladi.

TOSHKENT VA ISLMOBOD YEVROOSIYODA YANGI O‘SISH VA BARQARORLIK NUQTALARINI SHAKLLANTIRMOQDA

XORIIY EKSPERTLAR O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING POKISTONGA DAVLAT TASHRIFI YAKUNLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Prezidentining 5-6-fevral kunlari Pokiston Islom Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi yil boshidagi muhim tashqi siyosiy voqealardan biri bo‘ldi va ikki davlat munosabatlaring strategik xususiyatini tasdiqladi.

Toshkent va Islomobod bugungi kunda mintaqaviy integratsiyaning barqaror mexanizmlarini shakllantirish va ikki tomonlama kun tartibidan tashqari qo‘shma iqtisodiy o‘shining yangi drayverlarini ishga tushirish uchun noyob salohiyatga ega.

Tashrif dasturidan oliy darajadagi muzokaralar, Strategik hamkorlik bo‘yicha O‘zbekiston — Pokiston qo‘shma kengashining birinchi yig‘ilishi, biznes-forum va davlatimiz rahbarining Pokiston yetakchi kompaniyalari vakillari bilan uchrashuvlari o‘rin oldi. Erishilgan kelishuvlar savdo va investitsiyadan tortib, sanoat kooperatsiyasi va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishgacha bo‘lgan keng ko‘lamli yo‘nalishlarni qamrab olgan.

Tashrifning muhim ramziy yakuni sifatida Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokistonning oliy davlat mukofoti — “Nishoni Pokiston” ordeni bilan taqdirlandi. Mukofotni davlatimiz rahbariga Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy topshirdi va bu bilan ko‘p qirrali O‘zbekiston — Pokiston hamkorligini kengaytirishga, tomonlarning birgalikdagi sa‘y-harakatlariga qo‘shgan shaxsiy hissasini qayd etdi. Mukofot O‘zbekiston xalqiga yuksak e‘tibor, chuqur va samimiy hurmat ifodasi bo‘ldi.

Ekspertlar ushbu tashrifni muhim voqea sifatida baholab, uning natijalari nafaqat ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish, balki Markaziy va Janubiy Osiyoning o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidladi.

Tahlilchilarning fikricha, erishilgan kelishuvlar Yevrosiyoening transport-tranzit salohiyatini kuchaytirish, yangi barqaror yo‘nalishlarni shakllantirishga ko‘maklashish hamda keng mintaqaviy kontekstda iqtisodiy va siyosiy hamkorlik jarayonlariga qo‘shimcha sur‘at bag‘ishlashga qodir.

Ashraf SIDIQUL, “Asian Telegraph” yangiliklar platformaci asoschisi, ekspert (Qatar):

— Ko‘p yillardan buyon Janubiy va Markaziy Osiyodagi jarayonlarni kuzatib kelayotgan tahlilchi sifatida ochiq aytishim mumkin: O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga davlat tashrifi protokol hodisa emas, balki mintqa uchun strategik signaldir. Shu bilan birga, signal bir vaqtning o‘zida bir nechta darajada — siyosiy, iqtisodiy va, ayniqsa, bugungi kunda xavfsizlik sohasida muhimdir.

hamkorlik — O‘zbekiston uchun Pokiston dengiz portlariga chiqish, Pokiston uchun esa Markaziy Osiyo bozorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkonini beradi.

Biroq bunda shu narsaga e‘tibor qaratish kerakki, Transafg‘on koridorini amalga oshirish Afg‘onistonda minimal barqarorlik darajasiz mumkin emas. Aynan shuning uchun Toshkent va Islomobod Afg‘oniston yo‘nalishiga balandparvoz shiorlarsiz, ammo pragmatik hisob-kitob bilan kelishilgan yondashuvlardan obyektiv manfaatdor.

Yevrosiyo aloqalarining kengroq arxitekturasiga mos keladigan “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” yo‘lagi ham muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ushbu yo‘nalishlar O‘zbekiston va Pokistoni nafaqat hamkorlarga, balki yangi mintaqaviy logistika tugun davlatlariga aylantiradi.

Tashrifning iqtisodiy qismi mintqa uchun kamdan kam uchraydigan o‘ziga xoslikni namoyish etadi. Qariyb 500 million dollarlik tovar ayirboshlash bu jiddiy, ammo 2 milliard dollarlik maqsad va 3,5 milliard dollarlik loyihalar portfeli muhimroqdir. Bu yerda biz savdodan qo‘shma ishlab chiqarish va investitsiyaga o‘tishni ko‘ramiz.

Xan GEN, Shan'yan global boshqaruv va mintaqaviy tadqiqotlar akademiyasi direktori, professor:



— Tashrif izchil faollashib borayotgan O‘zbekiston — Pokiston muloqotining mantiqiy davomi va ayni paytda O‘zbekistonning Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyasini amalga oshirishda muhim bosqich bo‘ldi.

Toshkent va Islomobod mintaqaviy integratsiya va birgalikdagi iqtisodiy o‘shining barqaror mexanizmlarini shakllantirish uchun noyob salohiyatga ega.

Dengizga to‘g‘ridan to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan O‘zbekistonning geografik joylashuviga tarkibiy cheklov sifatida

emas, balki strategik chaqiriq va geoiktisodiy amalga oshirish imkoniyati sifatida qarash kerak. Shu nuqtayi nazardan, Pokiston Arabiston dengiziga chiqish imkoniyatiga, Karachi va Gvadar kabi muhim portlarga ega bo‘lib, O‘zbekiston uchun global savdo yo‘nalishlariga istiqbolli kirishni ta‘minlaydi.

Davlat rahbarlari strategik muloqot va keng ko‘lamli qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun ustuvor siyosiy asos yaratib, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va amaliy tashabbuslarni ilgari surishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston bilan Pokiston o‘rtasidagi munosabatlar yuksak darajada ekanini davlat rahbarlarining muntazamlik kasb etgan sammitlari ham yaqqol tasdiqlab turibdi. Ushbu uchrashuvlar ikki tomonning savdo-iqtisodiy, energetika, sanoat, ta‘lim, madaniyat, turizm va odamlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishni qamrab olgan ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishini namoyish etdi.

Davlat tashrifi doirasida Qo‘shma deklaratsiya va Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risidagi protokolning imzolanishi ikki mamlakat o‘rtasida barqaror iqtisodiy ko‘priklarni shakllantirish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, geologiya, farmatsevtika, yengil va oziq-ovqat sanoati, boshqa qator istiqbolli yo‘nalishlarda qo‘shma loyihalarining salmog‘li portfeli shakllantirilgan.

O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasidagi demografik va iqtisodiy tafavutlar bir-birini to‘ldiruvchi hamkorlik uchun sharoit yaratadi. 300 millionga yaqin aholiga ega bo‘lgan umumiy bozor nafaqat katta iste‘mol salohiyatini, balki qudratli inson kapitalini nam ifodalaydi. Bog‘liqlikning chuqurlashuvi mintaqadagi eng yirik mehnat va intellektual klasterlardan birining shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Ikki tomonlama kun tartibida savdo va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida transport jihatidan o‘zaro bog‘liqlik masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan holda, tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilishdan obyektiv manfaatdor, Pokiston esa dunyodagi eng muhim dengiz savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Shu ma‘noda, Gvadar porti mintaqaviy logistika va tranzit uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Ushbu salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘laydigan Transafg‘on transport yo‘lagi doirasida Afg‘oniston orqali quvurlikdagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish prinsipial ahamiyatga ega. Transport infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga, biznes, logistika

va bozorlar integratsiyasi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston bu borada ichki va tashqi bozorlarga tekzor, ishonchli va xavfsiz chiqishni ta‘minlaydigan muhim tranzit bo‘g‘ini hisoblanadi. Shu ma‘noda, Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini jadallashtirish, mintaqaning iqtisodiy geografiasini tubdan o‘zgartirishga qodir bo‘lgan “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” transport yo‘lagini ilgari surish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniy-gumanitar sohadagi tizimli hamkorlikni rivojlantirish masalalari alohida e‘tiborga loyiq. Islomobod shahridagi ko‘chalardan biriga Toshkent nomini berish va Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi bog‘ tashkil etish tashabbuslari ikki mamlakat xalqlari o‘rtasida tarixiy xotira, madaniy yaqinlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilishda muhim ramziy ma‘noga ega.

Manabu SHIMIZU, Rivojlanayotgan iqtisodiyotlar instituti faxriy professori (Yaponiya):



— Davlat tashrifini ishonch bilan ikki tomonlama munosabatlarning an‘anaviy diplomatik sheriklik shaklidan chuqur iqtisodiy va geostatistik integratsiya bosqichiga sifat jihatidan o‘zgarganini anglatuvchi muhim voqea deb ta‘riflash mumkin.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishi o‘tkazilishi ushbu o‘zgarishning asosiy belgisi bo‘ldi. Bu esa amalda ikki davlat rahbarlarining muloqotini institutsionalizatsiya qiladi va uni ikki tomonlama kun tartibini boshqarishning tizimli mexanizmiga aylantiradi.

Imzolangan 30 ga yaqin hujjat va shakllantirilgan 3,5 milliard dollarlik investitsiya portfeli tahlili Toshkent va Islomobod shaharlari sanoat kooperatsiyasi va qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratishga katta e‘tibor qaratayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitim doirasida tovarlar nomenklaturasini kengaytirish va fitosanitariya cheklovlari kabi notarif to‘siqlarni bartaraf etish hisobiga

tovar ayirboshlash hajmini hozirgi 500 million dollardan 2 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha ulkan maqsadga erishish mumkin.

Tashrif yakunlari bo‘yicha logistika klasteri alohida e‘tiborni tortadi va u, shubhasiz, O‘zbekiston — Pokiston yaqinlashuvining tayanch nuqtasi hisoblanadi.

Transafg‘on temir yo‘li loyihasini jadallashtirish va “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” yo‘lagini rivojlantirishga e‘tibor qaratish, port xizmatlari sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar O‘zbekistonning Pokiston portlari orqali dunyo okeaniga chiqish yo‘llarini diversifikatsiya qilishga intilishini ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatning geografik izolyatsiyasini bartaraf etish uchun juda muhimdir.

Aleksandra PERMINOVA, Rossiya Fanlar akademiyasi Xitoy va zamonaviy Osiyo instituti Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi katta ilmiy xodimi:



— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga davlat tashrifi doirasida oliy darajadagi samarali muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishi o‘tkazilib, unda ikki tomonlama munosabatlarga institutsional jihatdan barqaror tus beruvchi masalalar muhokama qilindi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishidan so‘ng O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif Qo‘shma deklaratsiya va Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risidagi bayonnomani imzoladi. Bundan tashqari, yetakchilar huzurida ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi ham bo‘lib o‘tdi.

Aytish lozimki, Janubiy Osiyo yo‘nalishi O‘zbekiston uchun ustuvor yo‘nalishlardan biridir. U mamlakat rahbariyatining rasmiy chiqishlarida transport bog‘liqligi, tashqi bozorlarga chiqish va savdo-iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida izchil qayd etib kelinmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, Pokiston O‘zbekiston tomonidan logistika salohiyati, bozorning demografik sig‘imi va mintaqaviy xavfsizlik masalalarida, birinchi navbatda, Afg‘oniston omili bilan bog‘liq sezilarli rolni o‘zida mujassam etgan muhim mintaqaviy markaz sifatida qaraladi.

Shubhasiz, tashrif Markaziy va Janubiy Osiyo uchun o‘zaro bog‘liqlik makonini shakllantirish istiqbollarini belgilab beradi hamda Yevrosiyo yozida zich va o‘zaro bog‘liq mintaqaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Vohadagi har bir tuman, har bir mahalla, har bir xonadonda odamlar islohotlar nafasini chuqur his qilishi kerak. Har bir mas'ul uyg'oni, zimmasidagi mas'uliyatni, eldoshlari oldidagi burchni his qilib ishlashi zarur. Muddaomiz — shu! Ana shunda Prezidentimiz belgilab bergan strategik maqsadlarni hayotga ta'laqonli tatbiq eta olamiz.

4 JAMIYAT

Joriy yilning 23-yanvar kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tgan edi. Prezidentimiz ushbu yig‘ilishda o‘tgan bir yilda 366 ming oila kambag‘allikdan chiqqani, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish sohasida qilingan choralar sababli kambag‘allik darajasi 8,9 foizdan 5,8 foizga, ishsizlik esa 5,5 foizdan 4,8 foizga tushganini alohida ta‘kidladi.



Resursdan — natijaga

TASHABBUS VA IMKONIYATLAR
AHOLI FAROVONLIGIGA XIZMAT QILMOQDA

Shuningdek, bu borada hali qildigan ishlarimiz ko‘pligi bois, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha katta vazifalar belgilab olingani haqida ham to‘xtalib o‘tdi.

Albatta, yurtimizda mahalla azaldan xalq hayotining uzviy qismi, jamiyatni birlashtiruvchi muhim ijtimoiy institut bo‘lib kelgan. Bugungi kunda esa mahalla nafaqat qo‘shnchilik va an‘analar maskani, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam ko‘priki sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xususan, so‘nggi yillarda mahalla tizimini isloh qilish, uni aholi manfaatlariga yanada yaqinlashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar qilinganiga guvohmiz. Mahallaning vakolat va mas‘uliyati kengayib, uning “birinchi bo‘g‘in” sifatidagi o‘rni mustahkamlandi. Ayniqsa, aholi muammolarini joyida hal etish, ijtimoiy himoya, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash, xotin-qizlar va yoshlar bilan ishlashda mahallaning roli sezilarli darajada ortdi.

Mahallalarda “xonadonbay” ishlash tizimi joriy etilgan bo‘lib, har bir oila, har bir fuqaroning turmush sharoiti o‘rganilmoqda. Natijada ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatish, ishsiz fuqarolarni kasb-hunariga o‘qitish va doimiy ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa aholining davlatga ishonchini yanada mustahkamlamoqda. Joriy yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb

nmlanishi bu boradagi yangi imkoniyat va maqsadlarga yo‘l ochdi.

Navoiy viloyatida ham mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘mi yildan yilga mustahkamlanib, “aholiga yaqin davlat” tamoyili amalda o‘z tasdiqini topyapti. Bu islohotlar samarasi Navbahor tumanining “Arabxona” mahalla fuqarolar yig‘ini misolida ham



yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘tgan vaqt mobaynida ushbu mahallada infratuzilmani yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish, bandlikni ta‘minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida samarali ishlar qilindi. Ichimlik suv, elektr ta‘minoti, yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, maktab va maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini barpo etish ishlari mahalla hayotida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda.

— Mahallamizda 677 xonadonda 3300 ga yaqin aholi yashaydi, — deydi Navbahor tumanidagi Arabxona mahallasi raisi Olim Davlatov. — Ayni vaqtda mahallamizda gaz va elektr energiyasi bo‘yicha muammolar yo‘q. Yaqingacha aholining toza ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 20 foiz edi. Ayni vaqtda hududda 11 kilometr yangi tarmoq tortilishi natijasida aholining ichimlik suv bilan ta‘minlanganlik darajasi 100 foizga yetadi.

Mahallalarda tadbirkorlar faoliyati aholi bandligini ta‘minlash, oilalar daromadini oshirishda muhim omildir. Shu bois, bugungi kunda har bir mahallada kichik biznesni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Buning uchun qator imtiyoz va imkoniyatlar berildi.

Arabxona mahallasida ham kichik biznes va hunarmandlik jadal rivojlanmoqda. Korxona va oilaviy tadbirkorlar soni oshib borayotir. Misol uchun, yaqinda ishga tushgan zamonaviy eshik-deraza ishlab chiqarish sexida o‘nga yaqin yosh doimiy ish bilan ta‘minlandi.

Hududlar
hayoti

Chorvachilik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan oilalar soni ortib bormoqda. Tadbirkorlikni boshlash istagidagi fuqarolarga imtiyozli kredit ajratilayotgani ayni muddao bo‘layotir. Aholining imkoniyat va salohiyati o‘rganilib, har bir xonadon kesimida ishlash amaliyoti joriy etilgan. Kredit, subsidiya ajratilishi va ishsizlarni kasbga yo‘naltirish orqali ko‘plab fuqarolar bandligi ta‘minlanmoqda.

— Tomorqachilik va chorvachilik asosiy drayver yo‘nalishlar, — deydi Arabxona mahallasidagi hokim yordamchisi Sohib Bekmurdoev. — Ayni vaqtda tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sohalari ham jadal rivojlanib bormoqda. O‘tgan 2025-yil davomida tadbirkorlikni boshlash istagida bo‘lgan fuqarolarga 1 milliard 400 million kredit ajratildi. Ushbu mablag‘lar evaziga aholi tomorqalariga issiqxonalar qurildi va bir necha xizmat ko‘rsatish obyekti ishga tushirildi. Buning natijasida 50 ga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi. Hozir ishsiz fuqarolar uchun ajratilgan ijara maydonlarda “Bir kontur — bir mahsulot” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha amaliy ishlayapmiz.

Mahallada qulupnaychilik bilan shug‘ullanayotgan oilalar yil davomida barqaror daromad olayotgan bo‘lsa, ayrim xonadonlarda issiqxonalar tashkil etilib, yilning to‘rt faslida ham mahalliy bozorga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetkazib berilmoqda. Ozoda Yo‘ldosheva ham 10 million so‘m kredit hisobiga issiqxona qurdi. Bugungi kunda u limon yetishtirish orqali yaxshigina daromad olmoqda.

— Issiqxonamizda limondan tashqari boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ham yetishtiramiz, — deydi Ozoda Yo‘ldosheva. — Kredit olib issiqxonamizni yangidan quridik va faoliyatimizni yanada kengaytirishni rejalashtirganimiz. Ikki yildan buyon limon hosilidan yaxshi daromad olyapmiz. Shuningdek, tomorqasiga issiqxona qurib, yangi ish boshlagan yoshlarga ham tavsiyalar berib kelyapmiz.

**G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Milliy brend

Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri import o‘rnini bosib, eksport qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishdir. Bu ichki imkoniyatlarni to‘liq ishga solish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanib, qo‘shimcha qiymat yaratishning muhim omili. Shu orqali milliy sanoat salohiyati yanada mustahkamlanib, yangi ish o‘rinlari ochiladi. Muhimi, eksport geografiyasi kengayadi.

SURXONDARYO SANOATI:
IMPORT KAMAYIB, EKSPORT O‘SMOQDA

Shu bois, mahalliy sanoatni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Jumladan, o‘tgan yili 26-may kuni Prezidentimiz raisligida mahalliy sanoatni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektorda bu muhim masalaga alohida e‘tibor qaratildi.

Yig‘ilishda to‘qimachilik, mebelsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalarida 1 millionga yaqin odam mehnat qilayotgani ta‘kidlangan edi. Bu esa mazkur tarmoqlar iqtisodiyotning drayver sohalariga aylanib borayotgani, shu bilan birga ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Xo‘sh, bu jarayondagi ishlar Surxondaryo viloyatida qanday kechayapti?

— So‘nggi 8-yilda Surxondaryoda import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda keskin o‘shish kuzatildi. Xususan, 1 ta erkin iqtisodiy, 36 ta kichik, 16 ta yoshlar va tadbirkorlik, hamda 1 ta xalqaro savdo sanoat zonasi tashkil etildi, — deydi Surxondaryo viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Sarvar Berdiyev. — Natijada hududda sement, dekorativ oyna, olovga bardoshli g‘isht, santexnika jihozlari,

lok va bo‘yoq, quruq qorishma, gipsokarton, dori-darmon, neft-gaz korxonalari uchun yondirgich qurilmasi, elektrotexnika, charm kabi yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalari yo‘lga qo‘yildi. Bu esa viloyatda yangi korxonalar tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mahsulot sifati va korxonalar daromadini yanada oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu sabab qo‘shimcha ish o‘rinlari ochiladi, transport va logistika xarajati kamayadi. Xomashyo va butlovchi qismlarni yetkazib berishdagi uzilishlar xavfi bartaraf etiladi. Surxondaryo viloyatida 2024-2025-yillarda mahalliyashtirish dasturi doirasida samarali ishlar qilindi. Xususan, qiymati 500 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Natijada bazalt xomashyosidan sendvich panel, kafel, LDSP, DVP, gazoblok g‘isht, temirbeton kabi mahsulotlar ichki hamda tashqi bozorda sotila boshladi.

Masalan, Sherobod tumanining tog‘li Zarabog‘ qishlog‘ida pardozbop tosh qazib olinib, qayta ishlanayapti. Yangi korxona nafaqat mahalliy iqtisodiyotning, balki butun mintaqaning qurilish sanoatida muhim o‘rin tuta boshladi. Ushbu sanoat liniyasi 500 ming kvadrat metrdan ziyod maydonda joylashgan. Undan kuniga 400, yiliga

esa 70 ming kvadrat metrgacha xomashyo qazib olinadi. Bu mahalliy xomashyodan samarali foydalanib, bozorgir mahsulot ishlab chiqarish imkonini bermozda.

Surxondaryo viloyatida yiliga o‘rtacha 5 trillion 700 milliard so‘mdan ortiq qurilish ishlari bajariladi. Shuning o‘ziyoq import o‘rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarish qanchalik muhim ekanini ko‘rsatadi. Mahalliyashtirish dasturi tufayli viloyat bozorida mahalliy mahsulotlar ulushi ortyapti. Xususan, 2020-2024-yillarda hududda 185 milliard so‘mlikdan ortiq import o‘rnini bosadigan mahsulot ishlab chiqarilgan. O‘tgan yili bu borada salmoqli o‘zgarish kuzatildi. 43 ta loyiha doirasida qariyb 364 milliard so‘mlik xuddi shunday mahsulotlar ishlab chiqarish liniyalari yo‘lga qo‘yildi. Bu, tabiiyki, iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilmoqda. Xususan, 2025-yilda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 109 foiz o‘tdi. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari 106 foizga yetdi. Ayni paytda Surxondaryo sanoatining eksport salohiyati ham kengayib boryapti. Buning barchasi qo‘shimcha ish o‘rni, qo‘shimcha iqtisodiy quvvat degani.

Muzrabot yurtimizning eng chekka tumanlaridan. Hududda yirik loyiha asosida yiliga 150 ming kub metr DSP ishlab chiqarilayapti. Uning 30 foizi ichki bozorga, 70 foizi esa eksportga yo‘naltiriladi. Natijada xuddi shu turdagi mahsulot

importi uchun sarflanadigan 2 million dollar tejaldi.

— Tumanimizdagi yirik korxona DSP ishlab chiqarish bilan cheklanib qolgan yo‘q. 2025-yildan boshlab loyiha yana bir muhim bosqichga chiqdi. Qamish qirindisidan tayyorlanayotgan DSP endi laminat qilingan tayyor mahsulot (LDSP) ga aylantiriladi. Shu orqali LDSP importining muayyan qismi qoplanadi, — deydi Muzrabot tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi bosh mutaxassisi Temurmaliq Odinaqulov.

Jarqo‘rg‘on tumanida 500 ga yaqin sanoat korxonasi bor. Jarqo‘rg‘on sement zavodida eksportbop sement ishlab chiqarilmoqda. Bu qurilish sanoati liniyasi eng zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan.

— Korxonaning umumiy loyiha qiymati 65 million dollarga teng. Uning yillik quvvati 350 ming tonnani tashkil etadi. Zavodda bir kunda 1200 tonna sement ishlab chiqariladi. Uning 200 tonnasi ichki bozorga chiqarilsa, qolgan eksport qilinyapti, — deydi “Surxonsementinvest” MCHJ xorijiy korxonasi bosh direktori Miraziz Mahmudov.

Davlatimiz rahbari 2023-yili Surxondaryoga tashrifi chog‘ida vohaning yer osti va yer usti boyliklaridan samarali foydalanib, yangi turdagi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan tegishli vazifalar bergan edi. Mazkur topshiriqlar ijrosi doirasida Oltinsoy tumanidagi bazalt zaxirasi o‘zlashtirildi. Loyihani amalga oshirish uchun 26 million dollarlik investitsiya kiritildi. Natijada yiliga 17 million dollarlik import o‘rnini bosadigan raqobatbardosh qurilish mahsuloti ishlab chiqarish imkoni vujudga keldi. Korxonaning yillik quvvati 30 ming tonna bo‘lib, mahsulotning 4 million dollarga teng qismi, ya‘ni 4500 tonnasi eksport qilish rejalashtirilgan.

Ushbu loyiha innovatsion yechimlarga asoslanib, energiya samaradorligi, ekologik tozaligi bilan qurilish sohasi ehtiyojlarini to‘la ta‘minlay oladi. Joriy loyiha mahsulotlari qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha qator yangi loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

**Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

YANGI O‘ZBEKISTON



“Yashil” energetika

TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR,

“AQLLI”
HISOBLAGICHLAR

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida suv tanqisligi sharoitida har bir tomchi suvdan samarali foydalanish, zamonaviy sug‘orish usullarini keng joriy etish, irrigatsiya infratuzilmasini yaxshilash eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berildi. Bu bejiz emas, albatta.

Farg‘ona viloyatida asosiy ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlash qo‘shni respublikalardan oqib keluvchi daryolar sathiga bog‘liq. Bu omil suvning har tomchisidan maqsadli, omilkorlik bilan foydalanishni talab qiladi. Viloyatdagi sug‘oriladigan 367 ming gektar maydonning yillik suv iste‘moli hajmi 3,8 milliard metr kubni tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan ta‘minlash hamda yerlarning meliorativ holatini me‘yorda saqlab turish uchun 6212 kilometr xo‘jaliklararo, 12 ming 398 kilometr ichki sug‘orish tarmoqlari, 168 ta nasos stansiyasi, 2303 ta tik quduq ishlab turibdi.

— Suv tejoyvchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etishda tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret hamda egiluvchan quvur va plyonka to‘shab sug‘orish usullariga alohida e‘tibor qaratilmoqda, — deydi “Sirdaryo — So‘x” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i Faxriddin Tursunov. — Viloyatda nasos stansiyalari samaradorligini oshirish, ya‘ni energiya tejamlor texnologiyalarga o‘tish, sarflanayotgan elektr energiyasi miqdorini yanada kamaytirish uchun 162 ta nasos agregati va 408 ta elektr dvigateli yangisiga almashtirildi. Bundan tashqari, 88 ta kondensator, 39 ta chastota sozlovchi qurilma o‘rnatilib, elektr energiyasi tejalisiga erishilmoqda.

Suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishda talabgorlarning birinchi navbatda moliyaviy holatini emas, balki, “bir kanal — bir tizim” tamoyili asosida yaxlit hududlar tanlanib, tizimligidirografik prinsip asosida yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Natijada kanalga ajratiladigan suv miqdori (limit) teng ravishda qisqaradi va kanal aylanma grafik orqali sug‘orish tizimidan chiqariladi. “Bir kanal — bir tizim” tamoyiliga bog‘langan fermer xo‘jaliklari sa‘y-harakati bilan 48,8 ming gektar maydonda suv tejoyvchi texnologiyalar o‘rnatildi.



Farg‘ona tumanida “Avval — Log‘on” yangi nasos stansiyasi o‘rnatildi. Yangi loyiha Farg‘ona tumanidagi suv yetib borishi qiyin bo‘lgan 10 ming gektardan ortiq ekin maydoni, aholi tomorqalarini suv bilan ta‘minlash imkonini beradi. Bu yerda sizot suvlarni to‘plash uchun kichik to‘l qurilib, energiya tejamlor, yuqori quvvatli nasos agregatlari o‘rnatildi, 9 kilometrdan ziyod quvur yotqizilib, suv sathidan 150 metr balandlikdagi Log‘on kanaliga suv yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

— 3000 gektardan ortiq ekin maydonimiz qo‘shni Qirg‘iziston hududidan oqib kelayotgan daryo o‘zanidan suv ichgan, — deydi “Fergana Oseana” MCHJ paxtachilik klasteri bosh agronomi Farhodjon Jamolov. — Ayni vegetatsiya davrida suv yetishmasligi hosildorlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatib kelardi. Yangi loyiha muammolarga barham berish bilan birga hosildorlikni ikki hissa oshirdi. Joriy mavsumda 2000 gektar yerda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini o‘rnatish borasida ishlayapmiz.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 118 ta nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish doirasida 2026-2028-yillarda viloyatdagi 16 ta nasos stansiyasi modernizatsiya qilinadi. Natijada yiliga 45,8 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejiladi. Eksploatatsiya

bilan bog‘liq xarajalar 1 milliard 230 million so‘mga qisqaradi. Buning hisobiga 8500 gektar ekin maydoni foydalanuvga kiritiladi.

— Fermer va klaster xo‘jaliklari yerni o‘z nasos agregati orqali sug‘orish uchun quyosh panellaridan foydalanishga e‘tibor qaratmoqda. 2025-yilda 503 fermer xo‘jaligining 941 ta nasos agregatiga umumiy quvvati 30 ming 33 kilovattli quyosh panellari o‘rnatildi. Bu yil davomida 49,5 million kilovatt-soat elektr energiyasini tejash imkonini bermozda, — deydi “Sirdaryo — So‘x” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Abrorjon Xoligov. — Bugun davlat hisobidagi 1053 ta tik sug‘orish quduq‘i davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida foydalanuvchilar hisobiga o‘tkazildi. Bu muqobil energiyadan foydalanish borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Misol uchun, 50 kilovatt-soat quvvatli quyosh paneli stansiyasining ayni paytdagi narxi 165 million so‘m. Bunday quyosh paneli bir kunda 300 kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu ko‘rsatkich bir oyda 9000, bir yilda 108 ming kilovatt-soatni tashkil qiladi. Har bir kilovatt-soat elektr energiyasining bugungi narxi hisobga olinsa, iqtisodiy samaradorlik ko‘lamini chamalab olish qiyin emas.

Keyingi 2 yilda 36 ta nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy sektor boshqaruviga berildi. Ular, birinchi navbatda, 10,2 milliard so‘mlik investitsiya jalb etdi. Natijada 22 ta nasos agregati yangilandi, 28 ta energiya tejamlor qurilma o‘rnatilib, 7,2 milliard so‘m investitsiya o‘zlashtirildi. Buning hisobiga yiliga 2,1 million kilovatt-soat elektr energiyasi va 2,1 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ iqtisod qilinmoqda. Joriy yil yakuniga ko‘ra, yana 30 ta nasos stansiyasi davlat-xususiy sheriklik asosida tashabbuskorlarga berilib, 10 milliard so‘m



investitsiya kiritiladi. Bu bir vaqtning o‘zida 1,8 million kilovatt-soat elektr energiyasini tejash imkonini beradi.

Viloyatda umumiy quvvati 21,3 megavatt bo‘lgan 13 ta mikro GES qurish rejalashtirilgan. Shu kunlarda “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan Farg‘ona tumanida ikkita mikro GES foydalanishga topshirildi.

— Hisob-kitoblarga ko‘ra, 110 ta gidrotexnik inshoot hamda 5 ta kanalga quvvati 96,2 megavatt bo‘lgan 142 ta har xil quvvatli mikro GESlar qurish borasida amaliy ishlar bajarilayapti, — deydi “Sirdaryo — So‘x” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Abrorjon Ahadov. — Suv o‘lchash inshootlarida suv sarfini onlayn kuzatish imkoniyatini beruvchi 1548 ta “aqli” suv qurilmasi, meliorativ quduqlardagi suv sathini onlayn aniqlovchi 424 ta “dayver” qurilmasi, nasos agregatlarida suv miqdorini onlayn hisoblaydigan 168 ta qurilma, 1350 ta tik sug‘orish quduqlarini masofadan boshqarish tizimi o‘rnatildi.

Suv zarga, suvchi esa zargarga qiyoslanadi. Obiyahot tanqisligi dolzarb masalaga aylanib borayotganda bu ko‘hna ibora kundan kun muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormozda.

**Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.



ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUV VA SOHAVIY USTUVORLIK



Ahmed REYMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Qoraqalpog'iston bo'limi raisi,
akademik

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini milliy ilm-fan tarixida yangi davrni boshlab bergan, mazmun-mohiyati, ko'lami va strategik ahamiyati jihatidan chinakam tarixiy qaror sifatida baholayman. Zotan, ushbu qaror bilan ilm-fan sohasiga nisbatan yondashuv tubdan o'zgardi, Fanlar akademiyasi faoliyati davlat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan uzviy bog'landi va ilmiy salohiyatni real iqtisodiyot, ijtimoiy barqarorlik hamda milliy taraqqiyot manfaatlariga xizmat qildirishning aniq mexanizmlari belgilandi.

Qarorda 2030-yilga qadar Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlari aniq belgilab berilgan, ayniqsa, muhim. Bu yo'nalishlar mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilgan va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Orolbo'yi hududi tabiiy-ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan o'ziga xos. Demak, ilmiy yechimlar ham shu hududning real sharoitiga mos bo'lishi talab etiladi.

Biotexnologiya va gen muhandisligi sohasida belgilangan ustuvor vazifalar Qoraqalpog'iston uchun, ayniqsa, dolzarb. Aholi salomatligini mustahkamlash, qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, sho'rlanish va iqlim o'zgarishi sharoitiga mos ekin turlarini yaratish, preventiv tibbiyot va farmatsevtika yechimlarini ishlab chiqishda ushbu yo'nalish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qoraqalpog'iston olimlari tomonidan bu borada qilinayotgan tadqiqotlar mazkur qaror asosida belgilangan vazifalar bilan to'liq uyg'un holda davom ettiriladi.

Aqlli materiallar va nanotexnologiyalar energetika, sog'liqni saqlash va sanoat sohalari uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ayniqsa, ekologik xavflar yuqori bo'lgan Orolbo'yi hududida yengil, chidamli va funksional materiallarni yaratish bo'yicha ilmiy ishlanmalar amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda FAning Qoraqalpog'iston bo'limi respublika ilmiy markazlari bilan hamkorlikda tadqiqotlarni kengaytirishni maqsad qilgan.

Sun'iy intellekt, Big Data va kvant texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlar ekologiya monitoringi, suv resurslarini boshqarish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini raqamlashtirishda yangi bosqichni boshlab beradi. Qoraqalpog'iston sharoitida bu, avvalo, ekologik holatni doimiy kuzatib borish, biologik xilma-xillikni tahlillash va qaror qabul qilishda ilmiy asoslangan raqamli modellardan foydalanish imkonini yaratadi.

Qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi, "yashil" texnologiyalar sohasidagi ustuvor yo'nalishlar Qoraqalpog'iston uchun strategik ahamiyatga ega. Quyosh va shamol energetikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish, resurs tejamonkor va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish orqali hududning ekologik barqarorligini ta'minlashda ilm-fan hal qiluvchi o'rin tutadi.

Tuproq sho'rlanishiga qarshi kurashish va toza suv masalasi butun dunyoda bo'lgani kabi bizning mintaqada ham hayotiy ahamiyatga

ega. Yer resurslaridan barqaror foydalanish, tuproq xaritalarini yaratish, suv tanqisligi sharoitida oqilona suv boshqaruvi va tozalash texnologiyalarini ilmiy asoslash bo'yicha tadqiqotlar ushbu qarorda belgilangan ustuvor yo'nalishlar bilan to'liq uyg'un holda amalga oshiriladi.

Yadroviy fan va radiatsion texnologiyalar, raqamli tabiat, seysmik xavfsizlik sohalardagi tadqiqotlar ham Qoraqalpog'iston uchun muhim bo'lib, tabiiy xatarlarni kamaytirish, ekotizimlarni muhofaza qilish va aholi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Milliy tarix, jamiyat va ma'naviy meros, raqamli qo'lyozmalarni o'rganish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlar esa Qoraqalpog'istonning

14 milliard so'mlik yirik kapital ta'mirlash ishlari bajarildi. Bu nafaqat laboratoriyalar va ilmiy ishlar uchun zamonaviy sharoit yaratish, balki olimlar uchun munosib mehnat muhitini shakllantirish va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish imkonini ham berdi.

Shu tarzda amalga oshirilgan infratuzilma islohotlari ushbu qaromning moliyaviy va tashkiliy jihatdan samarali ijrosi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajardi. Qaror qabul qilinishi esa bu tayyorgarliklarning samarali natijalarini keng miqyosda ilmiy-amaliy vazifalarni amalga oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy laboratoriya loyihalarini yo'lga qo'yish imkoniyatiga aylantirdi.

Bu tasodifiy yoki bir kunlik tashabbus sifatida qabul qilingan hujjat emas. Unga uzoq muddatli tahlillar, sohaviy muhokamalar va aniq maqsadlarga qaratilgan muzokaralar olib borildi. Ilm-fanni rivojlantirishda tizimli yondashuv aynan shu jarayonlarda shakllandi va keyinchalik davlat siyosati darajasida mustahkamlandi. Qaror mazmunida aks etgan vazifalar, avvalo, hududiy ilmiy salohiyatni global ilm-fan makoniga integratsiya qilish, xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Kelgusi yillarda Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston bo'limi xalqaro hamkorlikni kengaytirishni ustuvor strategik vazifa sifatida belgilab olmoqda. Jumladan, Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon Ekologiya va geografiya instituti olimlari bilan qo'shma ilmiy loyiha va dasturlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur hamkorlik qishloq xo'jaligi, biotexnologiya va ekologiya sohalarida ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, zamonaviy ilmiy yechimlarni mahalliy sharoitga moslashtirish hamda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, yosh olimlar va tadqiqotchilar o'rtasida tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish, qo'shma ilmiy seminarlar, stajirovklar va malaka oshirish loyihalarini tashkil etish orqali ilmiy kadrlar salohiyatini yuksaltirish ko'zda tutilgan. Bu jarayon nafaqat bilim va tajriba almashinuvi ta'minlaydi, balki yangi ilmiy maktablar shakllanishiga, yosh avlodning xalqaro ilm-fan muhitida raqobatbardosh bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan tabiiy fanlar yo'nalishida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan. Qo'shma tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, laboratoriyalar o'rtasida tajriba va ma'lumot almashish mexanizmlarini takomillashtirish orqali fundamental va amaliy tadqiqotlar sifatini yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan. Bu hamkorlik ilmiy natijalarni tizimli ravishda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda bilan bog'lash, fanning amaliy qiymatini yanada oshirish imkonini beradi.

Aynan shu kabi aniq rejalar va puxta tayyorgarlik qaror qabul qilinishiga mustahkam asos bo'lib xizmat qildi. Zero, ilm-fanni rivojlantirishda tizimli yondashuv aynan shunday uzluksiz jarayon — tahlil, muzokara, xalqaro tajriba va aniq maqsadlarga asoslangan harakatlar nazarda tutiladi. Shu bois, bu borada belgilangan vazifalarni to'liq va sifati amalga oshirish, Orolbo'yi hududining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish mamlakatimiz farovonligini, ilm-fani nufuzini yanada yuksaltirishi shubhasiz.

Aqlli materiallar va nanotexnologiyalar energetika, sog'liqni saqlash va sanoat sohalari uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ayniqsa, ekologik xavflar yuqori bo'lgan Orolbo'yi hududida yengil, chidamli va funksional materiallarni yaratish bo'yicha ilmiy ishlanmalar amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nuqtayi nazar

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohada davlat siyosati konsepsiyasi umumjamiyat manfaatlarini inobatga olgan holda, din va davlat munosabatlarini shaffof, adolatli hamda barqaror asosda yuritishga xizmat qiluvchi muhim me'yoriy-huquqiy hujjatdir.

DINIY BAG'RIKENGLIK VA VIJDON ERKINLIGI

mamlakatimizdagi o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan



Husniddin AHMEDOV,
Din ishlari bo'yicha qo'mita
huzuridagi Diniy-ma'rifiy
sohada malaka oshirish va qayta
tayyorlash instituti direktori,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Mazkur konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalar, ayniqsa, butun dunyoda globallashuv jarayoni nihoyatda avj olgan hozirgi davrda yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz bu haqda BMTning 78-sessiyasida so'z yuritib, "... So'nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi deb hisoblaymiz", deya bejiz ta'kidlagan. Bu boradagi muhuroba qurolli turli joylardan kelayotgan yot mafkuralar hamda ayrim fuqarolar, xususan, yoshlar orasida ilgari surilayotgan, ular ongiga zindan singdirilayotgan turfa g'oyalardir. Kim bu maydonda loqayd bo'lsa, ongi va suverenligini yo'qotib, mustamlakaga aylanadi. Shuning uchun e'tiqod muhofazasi bugun har qachongidan ko'ra alohida e'tiborga muhtoj.

Ha, bugun ong uchun global kurashda e'tiqod eng katta hujum ostida. Shu bois, endi soha vakillarining malakasini oshirish, ularga suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tamoyillari hamda qadriyatlarini singdirish, axborot muhitini to'g'ri anglash qobiliyatini shakllantirish hayotiy zaruratga aylangan.

So'nggi yillarda yangi O'zbekistonda shakllana boshlagan, oqibatga emas, sababga e'tibor qaratilmoqda. Bu jihatdan Prezidentimizning 2025-yil 21-apreldagi "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini qator sabablarga ko'ra, ma'naviy xavfsizlik doktrinasi deyish mumkin.

Birinchidan, o'zida xalq manfaatini, inson qadri borasidagi e'zguliklarni yo'q qilgan ayni farmon soha xodimlarining malakasini muayyan izchillik asosida oshirib borishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Fargonaga asosan tashkil etilgan Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash institutida tahsil olayotgan tinglovchilarning mutaassiblik va radikalizm kabi ekstremistik g'oyalarga qarshi turuvchi mutaxassislarga aylanishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi huzuridagi Diniy-ma'rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori esa ilmiy muassasalar integratsiyasi, modulli va masofaviy ta'lim, baholash va akkreditatsiya tizimi, xalqaro hamkorlik platformasini aniq belgilab bergan farmonning amaliy dasturi bo'ldi.

Ayni shu hujjatlar soha xodimlarining rolini o'zgartirib, ularni jamiyat ongi va fuqarolar e'tiqodini muhofaza qiluvchi posbonlarga aylantirishga xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekistonda bu hujjatlar asosida nafaqat islomshunoslik, balki e'tiqod madaniyati ham qayta shakllanmoqda. Shuning uchun malaka oshirish kurslarida taqdim etilgan modullar orqali Konstitutsiya, qonunlar va demokratik tamoyillar mazmun-mohiyati o'rganiladi. Geosiyosiy tahdidlar va axborot manipulyatsiyasiga qarshi turish, huquq, psixologiya va yoshlar bilan ishlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

Ushbu farmon va qaror timsolida yangi O'zbekiston izchil strategiyani qo'llamoqda. Unga ko'ra, diniy soha xodimlarini bilimli qilish va jamiyat ongini mustahkamlash eng asosiy vazifadir. Bundan ko'zlangan maqsad hech qanday radikal g'oyaning jamiyatda ildiz otishiga yo'l qo'y maslikdir.

Ikkinchidan, mazkur farmonning xalqaro imijini shakllantirish va geoma'naviy ahamiyati ham mavjud. Ushbu yo'nalishda zarur xorijiy tajriba to'plangan. Dunyoda soha xodimlarini davlat darajasida qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashgan institutlar hamda dasturlar ko'p, bu kabi muassasalar tizimi shakllangan.

Biz sharhlayotgan farmon va qarorda Marokash, Misr, Turkiya, Malayziya, BAA kabi mamlakatlardagi ilg'or ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish, qo'shma kurslar, ilmiy stajirovklar va onlayn seminarlar tashkil etish vazifasi belgilangan.

Ushbu hujjatlar talabalarining bajarilishi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda mo'tadil e'tiqod va ma'rifiy yondashuv namunasini sifatida tan olinishiga xizmat qiladi. Ko'plab mamlakatlarda qatorida xalqaro ta'limdagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Uchinchidan, yangi O'zbekistonda soha xodimlarining malakasini oshirish tizimini tubdan isloh qilish va institutsional asos yaratishni ko'zda tutgan farmonning asosiy g'oyasi diniy soha faollarini tayyorlash va malakasini oshirishni bir

metodik qo'llanmalar hamkor tashkilotlar tavsiyasi hamda tinglovchilardan olingan so'rovnomal tahlili va bugunning talablaridan kelib chiqib tubdan yangilandi.

Bundan tashqari, sohada yetuk mahalliy olimlar, mutaxassislar va amaliyotchi diniy soha xodimlari ishtirokida ishchi guruhlar tashkil etildi. Ushbu guruhlar milliy ilmiy asoslarga tayangan holda fanlar bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirish, o'quv mazmunini tizimlashtirish va atamalardan foydalanishda yagona standartni belgilash bo'yicha ishlarni davom ettirmoqda.

Beshinchidan, farmonda belgilab berilgan mazkur ishlar yakunlanishi natijasida ta'lim tizimida yagona metodika va terminologiyaga asoslangan, ilmiy jihatdan puxta ishlab chiqilgan milliy standart yaratilishi kutilmoqda. Bu esa o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayonida bir xillik va uzviyligni ta'minlashga xizmat qiladi.

Farmon e'tiqod erkinligi modelining huquqiy asosi hamdir. Bu hujjat tufayli diniy soha xodimlari ilmiy, madaniy va axloqiy yetakchiga aylanadi. Jamiyat ma'naviy barqarorlik va totuvlik muhitining haqiqiy sobihi bo'ladi. Davlat islom ma'rifati orqali o'zining xalqaro imijini mustahkamlaydi.

Hozir institutda har oyda 7-8 guruh "Yangi O'zbekiston" fenomeni va uni barpo etishga oid islohotlar, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining mazmun-mohiyati, davlat va din munosabatlari, O'zbekistonda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash, xavfsizlik va tashqi siyosatning



markazda jamlab, uni davlat siyosiy va ma'naviy barqarorlik tizimining asosiy bo'g'ini sifatida qayta qurishdi. Ilgari bu yo'nalishdagi faoliyatni turli idoralar turlicha olib yuritgan: yagona metodika, yagona standart va yagona baholash tizimi mavjud bo'lmagan.

Fargonada xodimlar tayyorgarligi oddiy idoraviy vazifa sifatida emas, balki milliy manfaatlar darajasida belgilab berilgan. Unda ta'limning modulli tizimini joriy etish nazarda tutilgan bo'lib, bu tizim har bir tinglovchi ehtiyojiga mos dasturni tanlash imkonini beradi, fanlararo integratsiyani ta'minlaydi. Malaka darajasiga qarab sertifikatlash imkonini yaratadi.

Bu jahon amaliyotidagi uzluksiz ta'lim modelini joriy etish deganidir. Mazkur tizimdan quvvat olgan, sog'lom fikrli mutaxassis radikal g'oyalarning ildizini quritadi. Yoshlarning qalbida ehtirom uyg'otadi, jamiyatda ishonch muhiti va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi. To'rtinchidan, farmonda zamonaviy raqamli infratuzilmadan foydalanish zarurligi alohida qayd etilgan. Xodimlar uchun onlayn kurslar, videoma'ruzalar, testlar va sertifikatlash tizimi ishga tushirilishi, mahalliy va xorijiy ekspertlar ishtirokida gibrid formatdagi o'quvlar tashkil etilishi ko'zlangan. Bu ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga viloyatlar va chekka hududlardagi diniy soha xodimlari uchun ham teng imkoniyat yaratadi.

Farmon ijrosi doirasida mazkur yo'nalishda amaliy ishlar boshlanib, xodimlar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlari hozirlanmoqda. Onlayn platformalar orqali o'quv kurslari va videoma'ruzalar tashkil etilib, tinglovchilarning bilim darajasi baholab borilmoqda.

Faoliyati boshlanganiga ko'p bo'lmagan institutda farmon va qaror talablariga ko'ra sohaga doir milliy ta'lim standartini ishlab chiqish yo'lida qizg'in mehnat qilinmoqda. Zarur fanlarni o'qitishda yagona metodika va terminologiya ta'minoti chorasi ko'rilmog'da. Shu maqsadda institutda ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlar,

ustuvor yo'nalishlari, din bilan bog'liq geosiyosiy jarayonlar tahlili, ommaviy axborot vositalarining radikal g'oyalarga qarshi immunitet shakllantirishdagi o'rni, mazhabsizlik sabablari, oqibatlari va unga qarshi ilmiy yondashuvlar kabi modullar asosida tahsil olmoqda.

Aslida, malaka oshirish huquqiy va dunyoviy davlat shartlaridan biridir. Shu bois, O'zbekiston kabi huquqiy, dunyoviy va demokratik davlatda xodimlar faqat e'tiqod bilan bog'liq ta'lim emas, balki davlat qonunlari, fuqarolik burchi va demokratik tamoyillar haqida ham yetarlicha bilimiga ega bo'lishi kerak. Bu ularning faoliyatini qonun bilan uyg'unlashtiradi. Shu bilan birga, davlat va din munosabatini muvozanatda ushlab turadi.

Malaka oshirish tizimining samarasi shundaki, u nazariy bilim bilan amaliy faoliyatni birlashtiradi. Masalan, bilim, tafsil, firq shakl ishlashda o'zaro bilimlarni takomillashtiradi. Dunyoviy fanlar — huquq, siyosat, ma'naviyat, sotsiologiya, psixologiya va mediasavodxonlik orqali jamiyat bilan ishlash usullarini o'rgatadi. Bu ikki yo'nalishni o'zida uyg'unlashtira olgan soha xodimlari jamiyatda real ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Soha xodimlarining malakasini oshirish faqat ushbu jabhani isloh qilish emas, balki butun jamiyatni ma'naviy sog'lomlashtirish jarayonidir. Bu yo'nalishdagi ishlar O'zbekistonni nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda ham ma'rifiy markaz sifatida namoyon etmoqda. Shuning uchun "malaka oshirish" oddiy o'quv kursi emas, balki dunyodagisiz islohoti, intellektual sinov maydoni va ma'naviy barqarorlik garovi deyish mumkin.

Samarali malaka oshirish orqali har bir soha xodimi e'tiqodini fan va aql bilan uyg'un holda talqin etadigan, qonun va vijdonni bir butun ma'naviy tizim sifatida ko'radigan, jamiyatda muloqot madaniyatini qaror toptiradigan faol insonga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu soha takomiliga mas'ul bo'lgan barchamizning zimmasiziga katta mas'uliyat yuklaydi.

boy tarixiy-madaniy merosini ilmiy asosda tadqiq etish, uni zamonaviy raqamli formatlarda jahon jamoatchiligiga taqdim etish imkonini beradi.

Mazkur tarixiy hujjat uzoq tayyorgarlik va keng muhokamalar natijasida shakllandi. Ilmiy faoliyatni rivojlantirishda zamonaviy talablarga mos infratuzilma va moddiy-texnik baza muhim ahamiyatga ega ekanini aniq bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan, o'tgan yil davomida bo'lim binosi va uning moddiy-texnik bazasini tubdan yangilash masalasi ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqildi.

Yillar davomida yig'ilib qolgan ishlar va texnik muammolarni bartaraf etish maqsadida Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi institutida





Shodmonqul SALOM

O'zbekiston

Jahon xaritasining rangi ming bor almasldi,
Tarix mundarijasin kerak joylari kuygan.
Qay zamonda ajdodim oriyat deb talashdi,
Shunda u qadagan tug' yerni to'xtatib qo'ygan.
Yulduzlarni muzlatgan zamindan sachragan qon,
O'zi paydo bo'lganmas biz suygan O'zbekiston!

Yer so'fyidir, yer marddir — hammasini aytmaydi,
Tinglab, anglab olmoqqa goh sabrimiz yetmaydi.
Otangga o'xshar Vatan, sen undan to'ragansan,
Kechirar, kek saqlamas, shuningdek, unutmaydi.
Lochinning tuxumidan boyqush chiqmas hech qachon,
O'zi paydo bo'lganmas biz bilgan O'zbekiston!

Taqdir tarozisini adolat uzra qurgan,
Yer ostiga oltinlar yerning ustidan borgan.
Bobomning orzulari armonlarga aylangach,
Shul armon ganjga do'nib, nasibamni jamg'argan.
Bir jilg'amda o'n to'rt ming ko'zi ochiq qatag'on*,
Ularning nidosidir zahmatkash O'zbekiston!

Ha, yerning ostidadir tillolarim, zarlarim,
Tarbiyachi pirlarim, ushlab turgan zo'rlarim.
Tag'in shunda botindir, shu Vatan ostidadir,
Peshonasi torlarim, peshonasi sho'rlarim.
Bul tuproqni sev, bolam, tavof qilgin har qachon,
Bu oddiy tuproq emas — tabarruk O'zbekiston!

Olomon emas, xalq bo'l, deya bitmish shoirlar,
Elining baxtin ko'rsa, ruhlari shod yotirlar.
Ulug' tog'larga qara — yuraklaring ulg'aysin,
Otasi botir bo'lmay tug'ilmas bahodirlar.
Orzu ham suyak surar, umiding bo'lsin omon,
Shu xalqning orzusidir bezaval O'zbekiston!

Koshki, shu she'rim bilan ajdod ruhin shodladim,
Xotirasi pand bergan zamonlarni yodladim.
Shom qirg'og'ida edim, tong sohili ko'rindi,
Bu tun kuldim, yig'ladim, quvoniblar dodladim.
Qanday shirin uxlaysan, bolam, ko'zing och, uyg'on,
Seni yo'rgaklayotir oppoq tong — O'zbekiston!

Vatan, mehringni uzma, mehringdan to'ymaguncha,
Kimlinging bilmas edim, farzandni suymaguncha.
“Ona tuproq” deyishni bir oqshomda o'rgandim,
Buncha aziz emasding, onamni qo'ymaguncha.
Kun sayin tomirlarim botib borguvchi bo'ston,
Shunday bino bo'lgandir ona yurt — O'zbekiston!

* Shahidlar xiyoboni joylashgan manzil nazarda tutilmoqda.
Bu joyda 14 mingdan ziyod yurtdoshimiz qatl etilgan.

9-fevral - Alisher Navoiy
tavallud topgan kun

YANGI O'ZBEKISTON



SHARQ RENESSANSINING YORQIN NAMUNASI



yaratgan, bu katalogda Navoiyning 35 ta
qo'lyozma asari nusxalariga tavsif berilgan.

Qomusiylilik kasb etgan ijod

2020-yil 19-oktabr kuni O'zbekiston Prezidenti imzolagan “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida”gi qaror bobomiz xotirasiga ko'rsatilgan yuksak ehtirom namunasi bo'lib, yurtimiz va mamlakatimiz tashqarisida bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Qaror ijrosi doirasida 2025-yilda Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'limi tomonidan to'rt jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi” nashrga tayyorlandi. Yozuvchilar uyushmasida kitobning taqdimoti o'tkazildi.

Ushbu to'rt jildli nashr 1985 sahifa, ensiklopedik xarakterdagi 3 mingdan ortiq maqolani o'z ichiga oladi. Unda Alisher Navoiyning tarjimai holi, faoliyati, yaqinlari, do'stlari, ustozlari, Navoiyning mumtoz adabiyotimiz tarixida tutgan beqiyos o'rnini xususida atroflicha ma'lumotlar qamrab olingan.

Ensiklopediyaga Navoiyning yurtimiz va jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma kitoblari kiritilgan. Shu bilan birga, haykaltaroshlik, teatr, kinoda mutafakkir siymosi aks ettirilishiga oid maqolalar jo bo'lgan. To'plamda o'zbekistonlik 78 nafar navoiyshunos, yosh tadqiqotchilar, turkiyalik va ozarbayjonlik olimlarning mavzuga oid maqolalarini ham o'qish mumkin.

Taqdimotda so'zga chiqqanlar bu singari kitoblar shoir ijodini mukammal o'rganishda dasturlamal vazifani o'tashi va davlat tilining nufuzi, mavqeiini oshirishda o'ziga xos o'rin tutishini ta'kidlashdi.

“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” tegishli taqsimot asosida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga, yurtimizdagi barcha kutubxonalarga bepul va bep'araz asosda yetkazib berilishi ta'minlandi.

Shu o'rinda XVIII-XIX asrlar yashab o'tgan avst-riyalik tarixchi, sharqshunos olim, shoir, tarjimon va tadqiqotchi Yozef fon Hammer-Purgstalnning quyidagi gaplarini keltirish o'rinni bo'lardi: “Navoiy — turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisi. Uning asarlari Sharq Renessansining yorqin namunasidir”.

2024-yil 1-noyabr kuni davlatimiz rahbari raisligida Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda el-yurtimiz, xususan, Navoiy ahlining ulug' ajdodimiz Alisher Navoiy xotirasiga hurmat-ehtiromi cheksiz ekani, buyuk bobomiz nomi bilan ataladigan viloyat ma'naviy tarbiya, ma'rifiy yuksalish yo'lidagi barchaga o'rnatilgan va namuna bo'lishi, ta'bir joiz bo'lsa, yurtimizning ma'naviy brendiga aylanishi zarurligi ta'kidlangan edi.

Shu bilan birga, Prezidentimiz Navoiy viloyatida 2025-yilni “Alisher Navoiy yili” deb e'lon qilishni taklif etdi. Yil doirasida har bir mahalla, maktab, oliygo'hnlar va mehnat jamoalarida “navoiyxonlik kechalari” o'tkazilishi belgilandi.

Bundan tashqari, “Yashil makon” loyihasi doirasida viloyatning shahar va tumanlari, qishloqlarda Navoiy bobomizga atab, yangi bog'lar, so'lim xiyobonlar, yashil hududlar, quriladigan Yangi O'zbekiston bog'ida Alisher Navoiyga bag'ishlab memorial muzey tashkil etiladigan bog'ldi.

Chindan ham Alisher Navoiy ijodining jahon miqyosida o'rganilishi, tadqiq etilishi har jihatdan navoiyshunoslik ilmini boyitadi. Bu jarayondan boxabarligimiz esa Alisher Navoiy ijodiyoti qanday rakursda tadqiq qilinayotganini kengroq bilishga va mahalliy tadqiqotlar bilan dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarni qiyoslash imkoniyatini beradi. Eng muhimi, xalqaro maydonda navoiyshunosligimizning nazariy saviyasini ko'tarishga bevosita xizmat qiladi.

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning munavvar siymosi, qutlug' nomi, uning bezaval merosi zamon va makon sarhadlari osha insoniyatni haqiqat, adolat, ezgulik sari da'vat etib boraveradi. Ulug' alloma asrlar davomida xalq bilan hamnafas, zamon bilan hamqadam yashayveradi. Bu umrbodiy meros nainki turkiy xalqlar, balki dunyo ahlini o'ziga ohanrabodek tortaveradi.

Nodir MAHMUDOVI,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zarjirband bir sher.
Temur tig'i yetmagan joyini
Qalam bilan oldi Alisher.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov ijodining gultoji bo'lgan mazkur misralarni bilmagan o'zbek bo'lmasa kerak. Alisher Navoiy turkiy so'z qudratini cho'qqiga ko'tardi, e'tiborsizlikka yuz tutgan ona tilimizning qaddini tikladi va turkiy til shuhratini dunyoga yoydi. Natijada uning asarlari orqali dunyo madaniyatimiz bilan tanishdi, xalqimizning bebaho qadriyatlariga ehtiromi oshdi.

Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Yangi O'zbekiston milliy g'oyasi, Uchinchi Renessans haqidagi orzu-umidlar va ularning ro'yobi yo'lida olib borilayotgan mardonavor harakatlar Hazrat Navoiy armonlari bilan hamohang. Shu ma'noda, mutafakkir bobomizning adabiy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etish dunyo xalqlarini davlatimiz va xalqimizning euzu intilishlaridan xabardor qilish, milliy madaniyatimizni xorijiy mamlakatlarda tanishtirish bilan uyg'un ekanini anglatadi.

Buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibayu latofati bilan namoyon etib, jahon adabiyoti sahnda munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Uning bizgacha yetib kelgan adabiy merosi, shubhasiz, ulkan xazina. Bobomizning bebaho ijodiy merosi nafaqat xalqimiz, balki dunyo xalqlari adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rin tutadi.

Siymosi abadiyatga muhrlangan so'z zargari

Ulug' shoir nomi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Milliy bog' va Davlat akademik katta teatri, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, adabiyot muzeyi, viloyat va uning markazi, metro stansiyasi, shuningdek, ko'plab ko'cha, mahalla, maktab, istirohat bog'lariga berilgan. Mamlakatimizning deyarli har bir hududida shoirga muhtasham haykallar o'rnatilgan.

Yurtimizdan tashqari Olmaota, Kiyev, Boku, Ashxobod va boshqa qator shaharlardagi ko'chalar uning nomi bilan ataladi. Shoir xotirasi, uning ma'naviy merosining ahamiyati nafaqat mamlakatimizda, balki yaqin va uzoq xoriyda ham e'zozlanadi, e'tirof etiladi. Alisher Navoiyning xoriyda qad ko'targan haykallari buning isbotidir. Ular salobat bo'lib, xalqimizning, millatimizning betakror dahosini ko'z-ko'z etib turibdi.

Navoiyning O'zbekistondan tashqarida paydo bo'lgan birinchi haykali 1968-yili Qirg'izistonning O'sh shahrida shoir tavalludining 525 yilligi munosabati bilan o'rnatilgan edi.

2002-yil noyabrda Moskva markazida, Sadovoye halqa yo'li yaqinidagi Serpukhovskiy maydonidagi bog'da shoirming 4,5 metrli bronza haykali o'rnatildi. U taniqli o'zbek haykaltaroshi Ravshan Mirtojiev tomonidan rus me'morlari Aleksandr Kuzmin va Igor Voskresenskiy bilan hamkorlikda yaratilgan. Yodgorlik Rossiyaning mumtoz Sharq adabiyoti merosiga madaniy hurmatini aks ettiradi. Uning atrofida har yili tantanali tadbirlar, Navoiy tavalludiga bag'ishlangan marosimlar o'tkaziladi.

2004-yil, Tokiodagi Soka universiteti hududida o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali ikki davlat o'rtasidagi do'stlik belgisi sifatida qad rostladi. Yodgorlik Buyuk ipak yo'li madaniyatlar o'rtasidagi mulqotini ramziy ma'noda ifodalaydi, tarixiy aloqalarni aks ettiradi.

Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida ham 2008-yil sentabrda Navoiy haykali ochildi. U Ozodlik shohko'chasi va Najaf Narimonov ko'chasi kesishmasida 2000 kvadrat metrdan ortiq maydonni egallagan, yashil maydonlar va favvoralar bilan bezatilgan bog'da joylashgan. Uni yaratish uchun taxminan 9 tonna bronza ishlatilgan. Har yili yodgorlik atrofida Navoiy bilan bog'liq tadbirlar o'tkaziladi.



2017-yil, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi sharafiga Shanxay universiteti hududida o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali bronza dan yasalgan. Yodgorlikning balandligi 3,6 metr, poydevori 1,8 metr, og'irligi 3 tonna.

2018-yil Dushanbe shahridagi mutafakkir bobomiz nomi bilan atalgan bog'da Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy haykali Tojikiston va O'zbekiston xalqlari o'rtasidagi do'stlik belgisi bo'lib tarixga kirdi.

Minsk shahrining Sverdllov ko'chasida ham 2019-yilda Alisher Navoiy byusti ochildi. Tantanali marosim 29-iyul kuni bo'lib o'tdi. U Belarus va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalari rivojlanib borayotganini anglatadi.

2021-yil 16-dekabr. Prezidentimizning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi arafasida Seul shahri markazida ulug' o'zbek shoiri haykali o'rnatildi. Uning loyihasi ushbu mamlakatda sohada yetakchi sanalgan “Malong Company” kompaniyasi tomonidan zamonaviy haykaltaroshlik ustublaridan foydalangan holda bajarildi.

Koreya poytaxtining Seocho-dong 1498-4 ko'chasi shaharning gavjum chorrahasi hisoblanadi. O'rnatilgan yodgorlik majmuasi ro'parasida Koreya Respublikasi Oliy sudi va Oliy prokuraturasi binosi joylashgan. Bu yerda, shuningdek, zamonaviy ko'p qavatli turar joy maskanlari qad rostlab turibdi, savdo va tibbiyot markazlari, kutubxona faoliyat yuritadi.

— O'zbek va koreys xalqlarining dunyoqarashi va urf-odatlar o'xshash, — deydi **Respublika koreys milliy madaniy markazi raisi Viktor Pak**. — Bugun O'zbekistonda yashayotgan 180 mingdan ziyod koreys diasporasi ko'p millatli jamiyatimizning ajralmas qismiga aylangan. Seulda buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyga yodgorlik o'rnatilishi xalqlarimizning o'zaro do'stlik aloqalari mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

2023-yil avgust. Qozog'istondagi **Ostona** shahri markazida Alisher Navoiyning balandligi to'rt metr dan ortiq haykali o'rnatildi.

2024-yil may. Turkmaniston poytaxti **Ashxobod** shahrida Maxtumquli Firog'iy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i majmuasidan buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy haykali ham munosib o'rinni egalladi.

2024-yil sentabr. Turkiyaning **Anqara** shahrida buyuk ajdodimizning ulug'vor haykali ochildi

marosimi bo'ldi.

2025-yilning 12-dekabr sanasida Qirg'izistonning O'sh shahrida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning yangilangan haykali va uning nomi bilan atalgan shohko'chaning tantanali ochildish marosimi bo'lib o'tdi.

— Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i 1968-yilda barpo etilgan va buyuk o'zbek shoirining shahardagi birinchi haykali ham shu yili o'rnatilgan edi, — deydi O'sh shahri meri Jenishbek Toktorboyev.

— Vaqt o'tib, mana, haykal yangilandi. 1991-yilda esa boqqa yondosh Qurmanjon Dadho ko'chasi bilan kesishgan ko'chaga ham uning nomi berilgan edi. So'nggi yillarda bu yerda katta ta'mirlash, kengaytirish va obodonlashtirish ishlari bajarilib, u shohko'chaga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-246.

30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bahor Xidirova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'ZA yakuni — 21:55

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefon: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05